ISSN:2308-5703

Impact factor:13.5 *International Multidisciplinary Online Journal* October, 2026

DARSLARDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O'QUVCHILARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna

Qo'qon davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrasi v.v.b. dotsenti

Gmail: abdullayevanargiza8007@gmail.com, https://orcid.org/0009-0003-8346-0706, Tel: +998903048007

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.23726608

Annotatsiya: Maqolada Boshlang'ich ta'lim bosqichida matematik bilimlarni shakllantirish nafaqat o'quvchilarning ratsional tafakkurini, balki ularning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyalarini, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutishi haqida so'z boradi. Buning uchun avvalo pedagog-ustozlarimizning o'zlari ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda fanlariga oid bo'lgan yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lgan holda darslarda amaliy qo'llab borishlari zarurdir.

Kalit so'zlar: kreativlik, muammo, ijodiy fikr, kreativ fikrlash, kuzatish, taqqoslash, tahlil, sintez, umumlashtirish, ijodiy qobiliyat, idrok qilish, ijodiy faollik, shakllangan intellekt, ijodiy potentsial, ijtimoiy- kommunikativ faoliyatga intilish, intellektual - ijodiy rivojlanish.

Аннотация: В статье рассматривается важная роль формирования математических знаний на этапе начального образования не только в развитии рационального мышления учащихся, но и в формировании их социокультурных компетенций и развитии способностей к креативному мышлению. Для достижения этой цели необходимо прежде всего развивать творческие способности самих педагогов, а также своевременно знакомить их с новыми научными достижениями и методическими разработками по преподаваемым предметам и применять полученные знания на практике в учебном процессе.

Ключевые слова: креативность, проблема, творческая мысль, креативное мышление, наблюдение, сравнение, анализ, синтез, обобщение, творческие способности, восприятие, творческая активность, сформированный интеллект, творческий потенциал, стремление к социально-коммуникативной деятельности, интеллектуально-творческое развитие.

Abstract: The article discusses the important role of developing mathematical knowledge at the primary education level, not only in fostering students' rational thinking but also in developing their sociocultural competencies and creative thinking abilities. To achieve this, it is essential, first and foremost, to develop teachers' own creative thinking skills and ensure that they stay informed about new scientific advances and methodological developments related to their subjects. Teachers should also apply this knowledge in practice during their lessons.

Keywords: creativity, problem, creative thought, creative thinking, observation, comparison, analysis, synthesis, generalization, creative abilities, perception, creative activity, developed intellect, creative potential, willingness to engage in social and communicative activities, intellectual and creative development.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim jarayonida barcha fanlar kabi matematika fanini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan matematika bo’yicha raqobat muhitini yaratish, sanoat, muhandislik yo’nalishlari bo’yicha yetuk kadrlar tayyorlash dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Maktabdagi darslarni sifatli tashkil etish esa avvalambor pedagoglarimizni ijodkor bo‘lishiga undaydi. Dars jarayonidagi faqat yodlashga qararilgan topshiriqlarning bo‘lishi, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bugungi kundagi davr talabiga mos kreativ fikrlaydigan o‘quvchilarni yaratish dolzarb vazifamizdir. Buning uchun avvalo pedagog-ustozlarimizning o‘zlari ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda fanlariga oid bo‘lgan yangi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lgan holda darslarda amaliy qo‘llab borishlari zarurdir. Xususan, bunday natijaga o‘quvchi-yoshlarni kreativ fikrlash qobiliyatlarini paydo qiladigan, uni o‘stiradigan, hayotiy, kasbiy ahamiyati yuqori bo‘lgan fanlardan biri matematika fani orqali erishishimiz qulay va osonroqdir. Aynan shu fan yordamida o‘quvchilarni, boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish mumkin. Yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo’lmaydi. Shu bois avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta‘lim dasturlari yaratib,o’qituvchilarni qayta tayyorlash zarur. [1]

Boshlang’ich ta’lim bosqichida matematik bilimlarni shakllantirish nafaqat o’quvchilarning ratsional tafakkurini, balki ularning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyalarini, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o’rin tutadi. Hozirgi vaqtda O’zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida boshlang’ich sinflarda matematika fanini o’qitishga ilmiy-metodik, texnologik va psixopedagogik yondashuvlar yangicha mazmun kasb etmoqda.

Aynan matematika fani bo’yicha 2022 yilda tasdiqlangan Davlat ta’lim standarti va o’quv dasturlarida ta’lim mazmunini kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida qayta tashkil etish belgilangan. Bu esa boshlang’ich sinf o’quvchilarining tafakkurini rivojlantirish, nazariy bilimlarni hayotiy vazifalarda qo’llashga yo’naltirilgan o’qitish modelini joriy etishni talab etadi (Manba: DTS, 2022). Boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan fanlar o’quvchilarda asosiy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu fanlar o’quvchilarning yoshiga mos ravishda bilim berish, ko’nikma va malaka hosil qilish maqsadida tashkil qilingan.

Hozirda O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari doirasida 3-4-sinflarda matematika fanini o’qitishga kompetentlikka asoslangan yondashuv joriy etilmoqda. Bu — o’quvchida faqat nazariy bilimni emas, balki hayotiy muammolarni hal etish qobiliyatini shakllantirishni ko’zda tutadi. 2022 yilda qayta ko’rib chiqilgan Davlat ta’lim standartiga ko’ra, 3–4-sinf o’quvchilarida matematik bilim va amallarni faol mulohaza, tahlil va refleksiya orqali egallash talab etiladi (O’zR Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4-yanvardagi 10-son qarori).

3–4-sinflarda matematika fanini o’qitish boshlang’ich ta’limning muhim bosqichi hisoblanib, o’quvchilarda umumiy tafakkur, mantiqiy yechim topish, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash va amaliy hisoblash ko’nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Bu sinflarda ta’lim mazmuni sezilarli darajada murakkablashadi: ko’p raqamli sonlar, amallar tartibi, tenglamalar, geometrik figuralar, masalalarni tahlil qilish va yechish kabi mavzular o’rgatiladi. Shu bois, mazkur bosqichdagi o’qitish jarayoniga ilmiy, psixologik va metodik yondashuvning kompleks xarakterda tashkil etilishi talab etiladi. Matematika fani maktabda o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish uchun o‘qitiladigan majburiy fanlardan biridir. Bu fan o’quvchilarda mantiqiy, tahliliy, tizimli, tanqidiy va

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 23 dekabrdagi O’zbekiston xalqiga va Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi

ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishi kerak bo'ladi. Matematikani yuqori darajada bilish fikrlash qobiliyatini yuqori bo'lishiga asos bo'ladi. Yuqori darajadagi fikrlash - bu mavjud bilim va tajribalarni manipulyatsiya qilish va ulardan foydalanish qobiliyatidir .

Ilmiy manbalar tahlili (T. Z. Ahmedov, G. N. Jo'raeva, I. I. Matveeva va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, 3–4-sinflarda matematik bilimlarni uzluksiz va tizimli ravishda shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

– muammoli vaziyatlar asosida o'qitish,

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish,

– tadqiqot elementlarini o'z ichiga olgan mashg'ulotlar,

– differensial va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.

Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'quvchilarda hayotda zarur bo'ladigan eng oddiy matematik tasavvurlar, bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali tafakkur faoliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini asos solishdan iborat. Matematik tafakkur boshlang'ich sinfda shakllana boshlashi bolaning keyingi ta'lim bosqichlarida fanni chuqur o'zlashtirishi uchun zarur intellektual poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantipish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs /3107036
2. Kistabayeva Gulchexra Djurakulovna. MAKTAB O'QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH. Journal of Education, Ethics and Value Vol. 3, No. 05, 2024 ISSN: 2181-4392, 97-100b]
3. Rokhataliyeva, A. N. (2022). Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(7), 50-55.
4. Rokhatalievna, A. N., & Kadiraliyevich, A. A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, *3*(7), 1-5.
5. Roxataliyevna, A. N., & G'ulomovna, Y. S. (2021). Teaching Children Problem-Solving in Preschool. *Middle European Scientific Bulletin*, *9*.
6. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‟yicha o'quv-uslubiy qo'llanma.:– Toshkent 2015,40 bet
7. Абдуллаева, Н. Р. Математикани ўқитишда ўқувчиларни креатив фаолиятини ривожлантиришнинг дидактик тамойиллари. *“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH” VOLUME 1, ISSUE 6*, 119.
8. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(11), 1354-1365.